

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar

fanidan

amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun uslubiy qo'llanma

Urganch neft gaz sanoati kasb-hunar kolleji



URGANCH -2017

Uslubiy qo'llanma Urganch Davlat Universiteti "Kimyoviy texnologiyalar" fakulteti "Kimyoviy texnologiyalar" kafedrasining 2017 yil "____" _____dagi ____-sonli, Uslubiy komissiyasining 2017 yil "_____" №_____-sonli, Uslubiy Kengashining 2017 yil "_____"dagi №_____-sonli yig'ilishlarida muhokama qilingan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

Tuzuvchilar:

Prof.Babaev Z.K.

Aitova Sh.K.

Allaberganova R.E.

Taqrizchilar:

t.f.n. dots. Saparbaeva N.K.

Dots. Ruziev I.

Mundarija.

I.Kirish.....	1
II.Amaliy mashg'ulotlarning hisoblash formulalari va asosiy bogliqliklari.....	2
2.1. 1-Amaliy mashg'ulot.Birliklar sistemasi va asosiy fizik kattaliklar	2
2.2. 2-Amaliy mashg'ulot.Suyuqlik xarakatlanayotgan quvurdagi maxalliy va ishqalanish qarshiliklarni hisoblashga doir masalalar	16
2.3. 3-Amaliy mashg'ulot.Nasosning asosiy parametrlarini hisoblashga doir masalalar	22
2.4. 4-Amaliy mashg'ulot.Mavhum qaynash qatlamining gidrodinamikasi	27
2.5. 5-Amaliy mashg'ulot.Turli jinsli sistemalarni cho'ktirishga doir masalalar.....	33
2.6. 6-Amaliy mashg'ulot.Fil'trlash qurilmasini hisoblashga doir masalalar	36
2.7. 7-Amaliy mashg'ulot.Sentrifugalashga doir masalalar	40
2.8. 8-Amaliy mashg'ulot.Ventilyator qurilmasini hisoblashga doir masalalar	44
2.9. 9-Amaliy mashg'ulot.Aralashtirish qurilmasini hisoblashga doir masalalar	49
III. Amaliy mashg'ulotlarga doir masala va mashqlar yechish namunalari va mustaqil yechish uchun masalalar	53
IV.Ilovalar.....	70

1-Amaliy mashg'ulot

Birliklar sistemasi va asosiy fizik kattaliklar

Asosiy texnologik jarayonlar va qurilmalar fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazishning asosiy maqsadi bu talabalarni namunaviy misol va aniq masalalarni echish orqali aloxida qurilmalarni hisoblash va loyihalashga o'rgatish.

Asosiy texnologik jarayonlar va qurilmalarni hisoblash tartiblari quyidagi ketma-ketlikda bajariladi.

1. Jarayonni moddiy va issiqlik balansi tuziladi. Ushbu balans tenglamalariga asosan qurilmaga kiritilayotgan va undan chiqayotgan moddiy va energetik oqimlar sarfi (miqdori) aniqlanadi.
2. Statik rejimlar uchun jarayon yo'nalishi va muvozanat holatining chegaralari aniqlanadi.
3. Jarayonni harakatga keltiruvchi kuch (konsentratsiya, harorat va bosimlar farqi) qiymati aniqlanadi.
4. Jarayon kinetikasi asosida uning tezligi va davri aniqlanadi.
5. Jarayon parametrlarining optimal qiymatlari bo'yicha qurilmani ishchi yuzasi yoki hajmi hisoblanadi.
6. Qurilmani hisoblangan konstruktiv o'lchamlariga ko'ra uning barcha elementlarini geometrik o'lchamlari aniqlanadi. Zaruriy hollarda mustahkamlik hisoblari ham bajariladi.
7. Jarayonni amalga oshirish paytida qurilma yoki mashinaning ishchi organlariga ta'sir etuvchi kuchlar qiymati hisoblanadi. SHundan so'ng, ishchi organ harakati uchun zarur bo'lgan quvvat miqdori aniqlanadi.
8. Kinematik hisoblar asosida mexanik uzatmalarni foydali ish koeffitsienti va uzatishlar soni aniqlanib, texnologik jihoz elektrodvigatelining iste'mol quvvati aniqlanadi. Bu turdagi hisoblashlarni bajarish uslublari "Amaliy mexanika" fani materiallarida o'rganilgan va zaruriy ma'lumotlar adabiyotlarda keng yoritilgan.

“Fizik kattalik” tushunchasi bir qator fizik ob’ektlar (sistemalar, ularning holati va ularda kechayotgan jarayonlar) uchun sifat jihatdan umumiy, ammo miqdor jihatdan har bir ob’ekt uchun individual bo’lgan **xossa** deb ta’riflanadi. Masalan, barcha jismlar massaga va haroratga ega bo’ladi, ammo ushbu parametrlarning son qiymatlari har bir jism uchun farqli bo’ladi. SHuning uchun har bir ob’ektning xossalarini aks ettiruvchi fizik kattaliklar o’rtasidagi miqdoriy farqni aniqlash maqsadida **fizik kattalikni o’lchash** tushunchasi kiritiladi.

Har bir fizik kattaliklarning o’lchamlari o’rtasida, ifodalanishiga ko’ra, son qiymatli (butun, ratsional va haqiqiy sonlar, vektorlar yoki matritsalar shaklida) yoki mantiqiy strukturaga ega bo’lgan nisbatlar (“katta”, “kichik”, “teng”, “yig’indi” va b.) mavjud. Odatda son qiymati shaklidagi ifodaga ega bo’lgan nisbatlar kattalik o’lchamini ifodalaydi.

SI (Systeme International) halqaro birliklar tizimi. Fizik kattaliklarning bir necha tizimlari mavjudligi, nosistematik birliklarning ko’pligi va bir tizimdan ikkinchisiga o’tish paytida qayta hisoblashlarni bajarish noqulayligi o’lchov birliklarining unifikatsiyalashni talab etadi. Turli davlatlar o’rtasidagi iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy aloqalarni o’sishi bunday umumlashtirishni halqaro masshtabda amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqardi. SHunday qilib, barcha o’lchash sohalarini qamrab oluvchi, amaliy jihatdan qulay bo’lgan fizik kattaliklarning yagona tizimiga talab kuchaydi.

1960 yilda o’lchov va tarozilar Bosh konferensiyasi tomonidan halqaro birliklar tizimi SI tasdiqlandi. SHu bilan birga yangi tizimning 6 ta asosiy, 2 ta qo’shimcha (1-jadval) va 27 ta birlikning o’zaro hosilasi aks etgan 1-ro’yxat hamda birliklarning o’zaro nisbatlari va bo’laklarini belgilovchi old qo’shimchalar tasdiqlandi.

1-jadval

SI tizimining asosiy va qo'shimcha birliklari

t/r	Kattaliklar	o'lchov birligi	Ruscha belgisi	Halqaro belgisi
	1. Asosiy birliklar:			
1.1	uzunlik	metr	m	m
1.2	massa	kilogramm	kg	kg
1.3	vaqt	sekund	s	s
1.4	elektr toki kuchi	amper	a	A
1.5	termodinamik harorat	kelvin	k	K
1.6	modda miqdori	mol	mol	mol
	2. Qo'shimcha birliklar:			
2.1	yassi burchak	radian	rad	
2.2	fazoviy burchak	steradian	sr	

2-jadval

SI tizimining hosilaviy birliklari

t/r	Kattalik nomi	Belgisi	Tenglamasi	O'lchov birligi	Izoxlar
1	Mexanik kattaliklar uchun				
1.1	Maydon (yuza)	S	$S = l \cdot b$	m^2	l- uzunlik, b- kenglik
1.2	Hajm, sig'im	V	$V = l \cdot b \cdot h$	m^3	h- balandlik
1.3	Tebranish chastotasi	F	$f = 1/T$	Gs	T- tebranish davri

1.4	CHiziqli tezlik	Y	$v = l/t$	m/c	l- masofa, uzunlik; t- vaqt
1.5	Tezlanish	A	$a = (v_2 - v_1)/t$	m/c^2	
1.6	Burchak tezlik	Ω	$\omega = \varphi/t$	rad/s	φ - burchak, radian
1.7	Kuch	F	$F = ma$	H	m- massa
1.8	Zichlik	P	$\rho = m/v$	kg/m^3	
1.9	Bosim, mexanik kuchlanish	P	$P = F/S,$ $\sigma = F/S$	Pa	Paskal
1.10	Quvvat	N, P	$N = A/t$	Bt	A- ish, energiya yoki issiqlik miqdori, J
1.11	Dinamik qovushqoqlik	μ	$\mu = F/[S(v/l)]$	Pa·s	
1.12	Kinematik qovushqoqlik	ν	$\nu = \mu/\rho$	m^2/s	
1.13	Modda sarfi: - xajmiy - massaviy	Q M, G	$Q = V/t,$ $G = Q\rho$	$m^3/s,$ kg/s	
2	Issiqlik kattaliklari uchun:				
2.1	Fazaviy o'zgarish-lar (kondensatsiya, bug'lanish) solishtirma issiqligi	I	$i = L/m$	J/kg	L- fazaviy o'zgarish-lar (kondensatsiya, bug'lanish)issiqligi
2.2	Solishtirma issiqlik sig'imi	S	$S = Q/m(t_2 - t_1)$	J/(kg·K)	Q- issiqlik miqdori; t_1, t_2 - dastlabki va oxirgi harorat
2.4	Issiqlik oqimi	Q	$q = Q/(St)$	Vt	
2.5	Xarorat gradienti	$\Delta t/\Delta l$	$\Delta t/\Delta l = (t_1 - t_2)/l$	K/m	

2.6	Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti	λ	$\lambda = Q\Delta l / (S\Delta t)$	$Vt/(m \cdot K)$	
2.7	Gaz doimiysi	R	$R = Pv/T$	$J/(g \cdot K)$	v - gazning birlik hajmi; T - harorat
2.8	Harorat o'tkazuvchanlik koeffitsienti		$a = \lambda / (\rho C)$	m^2/s	
2.9	Issiqlik berish koeffitsienti	α	$\alpha = q/S(t_2 - t_1)$	$Vt/(m^2 \cdot K)$	
3	Molyar kattaliklar uchun				
3.1	Molyar massa	M	$M = m/v$	kg/mol	v - modda miqdori, mol
3.2	Molyar hajm	V_m	$V_m = V/v$	m^3/mol	V -modda hajmi, m^3
3.3	Molyar issiqlik sig'imi	C_m	$C_m = C_p/v$	mol/m^3	C_p -o'zgarma bosimda moddani solishtirma issiqlik sig'imi
3.4	Molyar konsentratsiya	S_v	$S_v = v_v/V$	$J/molK$	v_v - V modda miqdori, mol; V -eritma hajmi, m^3

SI tizimining nisbiy va ulushli birliklari

t/r	Ko'paytma a^n	Qo'shimcha a nomi	Ruscha belgisi	Halqaro belgisi
	$1000000000000000000 = 10^{18}$	eksa	E	E
	$1000000000000000 = 10^{15}$	peta	P	R
1	$1000000000000 = 10^{12}$	tera	T	T
2	$1000000000 = 10^9$	giga	G	G
3	$1000000 = 10^6$	mega	M	M
4	$1000 = 10^3$	kilo	K	k
5	$100 = 10^2$	gekto	G	h
6	$10 = 10^1$	deka	da	da
7	$0,1 = 10^{-1}$	detsi	d	d
8	$0,01 = 10^{-2}$	santi	s	S
9	$0,001 = 10^{-3}$	milli	m	m
10	$0,000001 = 10^{-6}$	mikro	mk	μ
11	$0,000000001 = 10^{-9}$	nano	n	n
12	$0,000000000001 = 10^{-12}$	piko	p	r
13	$0,000000000000001 = 10^{-15}$	femto	f	f
14	$0,000000000000000001 = 10^{-18}$	atto	a	a

SI tizimini qabul qilinishi turli mamlakatlardagi ilmiy-texnik tashqilotlarning fan va texnika sohalarida erishgan barcha tajribalarini umumlashtirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu halqaro birliklar tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

1. Universallik – fan, texnika va xalq xo‘jaligining barcha sohalarini qamrab oladi;

2. Barcha o‘lchash turlari uchun birliklarni unifikatsiyalan-ganligi, masalan, mavjud bosim birliklari - atmosfera, millimetr simob ustuni, metr suv ustuni, peza, dina/sm² va boshqalar o‘rniga SI tizimida Paskal qo‘llaniladi.

3. Asosiy va ko‘plab hosilaviy birliklar amaliyot uchun qulay bo‘lgan shaklda qo‘llaniladi, masalan, maydon uchun- m², hajm- m³, elektr qarshiligi- Om va boshqalar.

4. Birliklar tizimining kogarentligi (fizik kattaliklarning o‘zaro bog‘liqligi va kelishilganligi) - fizik kattaliklarning hosilaviy birliklarini aniqlovchi tenglamalarda proporsionallik koeffitsientlari o‘lchamsiz birlikka teng.

5. SI tizimida massa (birligi kilogramm) va kuch (birligi nyuton) chegaralari aniq belgilangan.

Metrik sistemada qabul qilingan o‘nli nisbatlar katta va kichik o‘lchamlarning nisbiy va ulushli birliklarini hosil qilishning eng progressiv usuli hisoblanadi. O‘nli nisbatlar va ulushlar old qo‘shimchalar qo‘shish yo‘li bilan hosil qilinadi (3- jadval). Bu paytda daraja ko‘rsatkichi faqat old qo‘shimcha

qo‘shish tufayli olinadigan kattalikka tegishli bo‘ladi, masalan, $1\text{km}^2 = 1(\text{km})^2 = (10^3 \text{ m})^2 = 10^6 \text{ m}^2$; $1\text{sm}^3 = 1(\text{sm})^3 = (10^{-2} \text{ m})^3 = 10^{-6} \text{ m}^3$; $1\text{sm}^2 = 1(\text{sm})^2 = (10 \text{ mm})^2 = 100 \text{ mm}^2$; $1\text{m}^3 = 1(\text{m})^3 = (100 \text{ sm})^3 = 10^6 \text{ sm}^3$.

Quyidagi 4-jadvalda SI tizimining birliklari va amaliyotda qo‘llaniladigan ayrim nosistematik birliklar o‘rtasidagi nisbatlar keltirilgan.

4 - jadval

SI va boshqa tizimlar birliklarining o'zaro nisbatlari

t/r	Kattalik nomi	Kattalik		SI va boshqa tizimlar birliklarining o'zaro nisbati
		belgisi	Birligi	
1	2	3	4	5
1	Uzunlik	L	M	1m = 10 ² sm = 10 ³ mm = 10 ⁶ mkm = 10 ¹⁰ A°; 1 ft = 0.3048 m; 1 in = 25.4·10 ⁻³ m
2	Og'irlik (og'irlik kuchi)	G	N	1kgs = 9,81 N; 1 din = 10 ⁻⁵ N, 1 lbf = 4.45 N
3	Massa	M	Kg	1 tonna = 10 s = 1000 kg; 1kg = 10 ³ g; 1 lb = 0.454 kg
4	Harorat	t,T	K	t(⁰ C) = (t + 273,15)K; 1 ⁰ F = 0,56 K; 1 ⁰ C = 1.8 ⁰ F. t(⁰ F)= [0.5556(t-32)+273,15)K
5	Tekislik burchagi	φ	Rad	1 ⁰ = π/180 rad
6	Qovushqoqlik koeffitsienti: - dinamik - kinematik	μ ν	Pa· S m ² /s	1 P (puaz) = 0,1 Pa·s; 1sP = 10 ⁻³ Pa·s = 1 MPa·s; 1 Cm = 10 ⁻⁴ m ² /s = 1 sm ² /s
7	Bosim	R	Pa	1 bar = 10 ⁵ Pa; 1kgs/sm ² = 1 at = 9,81·10 ⁴ Pa = 735 mm sim. ust. = 10 m suv ust.; 1 atm = 1,033 kgs/m ² = 1,013·10 ⁵ Pa = 760 mm sim.ust = 10,33 m suv ust.; 1kgs/m ² = 1mm suv ust. = 9,81 Pa; 1mm sim.ust. = 133,3 Pa.
8	Quvvat	N	Vt	1kVt=1000Vt; 1kkal/soat = 1,163 Vt; 1kgs·m/s=9,81Vt

9	Sirt taranglik	σ	n/m	$1 \text{ kgs/m} = 9,81 \text{ J/m}^2$
10	Hajm	V	m^3	$1 \text{ m}^3 = 10^3 \text{ l} = 10^2 \text{ dal}$
11	Birlik hajm	V	m^3/kg	$1 \text{ m}^3/\text{tn} = 10^{-3} \text{ m}^3/\text{kg}$; $1 \text{ dm}^3/\text{kg} = 1 \text{ sm}^3/\text{g} = 10^{-3} \text{ m}^3/\text{kg}$.
12	Zichlik	ρ	kg/m^3	$1 \text{ tn/m}^3 = 10^3 \text{ kg/m}^3 = 1 \text{ g/sm}^3$.
13	Ish, energiya, issiqlik miqdori	A	J	$1 \text{ kg}\cdot\text{sm} = 9,81 \text{ J}$; $1 \text{ kVt}\cdot\text{soat} = 3,6\cdot 10^6 \text{ J}$; $1 \text{ kkal} = 4186,8 \text{ J} = 4,19 \text{ kJ}$; $1 \text{ BTU} = 1055 \text{ J}$.
14	Hajmiy sarf	Q	m^3/sek	$1 \text{ l/min} = 16,67\cdot 10^{-6} \text{ m}^3/\text{sek}$
15	Burchakli tezlik	ω	$\text{rad/s}, \text{ s}^{-1}$	$1 \text{ min}^{-1} = \pi/30 \text{ rad/sek}$; $1 \text{ sek}^{-1} = 2\pi \text{ rad/sek}$.
16	Solishtirma issiqlik sig'imi	S	$\text{J}/(\text{kg K})$	$1 \text{ kkal}/(\text{kg}^0\text{C}) = 4,19 \text{ kJ}/(\text{kg}\cdot\text{K})$
17	Issiqlik berish (uzatish) koeffitsienti	$\alpha, \text{ K}$	$\text{Vt}/(\text{m}^2 \text{ K})$	$1 \text{ kkal}/(\text{m}^2\cdot\text{soat}^0\text{C}) = 1,163 \text{ Vt}/(\text{m}\cdot\text{K})$
18	Issiqlik oqimining zichligi	Q	Vt/m^2	$1 \text{ kkal}/(\text{m}^2\cdot\text{soat}) = 1,163 \text{ Vt}/\text{m}^2$
19	Issiqlik o'tkazish koeffitsienti	λ	$\text{Vt}/(\text{m}\cdot\text{K})$	$1 \text{ kkal}/(\text{m}\cdot\text{soat}^0\text{C}) = 1,163 \text{ Vt}/(\text{m}\cdot\text{K})$
20	Kondensatsiyalanish (bug'lanish) issiqligi	R	J/kg	$1 \text{ kkal}/\text{kg} = 4,19 \text{ kJ}/\text{kg}$
21	Solishtirma entalpiya	I	J/kg	$1 \text{ kkal}/\text{kg} = 4,19 \text{ kJ}/\text{kg}$

Grekcha alfavit

T/R	Yozilishi	Nomlanishi	Yozilishi	Nomlanishi
1	α	Alfa	ν	Nyu
2	β	Betta	ξ	Ksi
3	γ	Gamma	$\omicron$	Omikron
4	δ	Delta	π	Pi
5	ϵ	Epsilon	ρ	Ro'
6	ζ	Daeta	σ	Sigma
7	η	Eta	τ	Tau
8	θ	Teta	υ	Ipsilon
9	ι	Yota	φ	Fi
10	κ	Kappa	χ	Xi
11	λ	Lambda	ψ	Psi
12	μ	My	ω	Omega

Qolgan hamma birliklar shu qatori yuqorida qayd etilgan birliklar asosida keltirib chiqarilgan va ular birliklari fiziik tenglamalar orqali topiladi. Misol yoki masalani echishni boshlashdan avval qurilmaning sxemasini chizib olib, unga hamma o'lcham va kattaliklar qo'yiladi. So'ngra, oqimlarning harakat yo'nalishi belgilanadi va uning ishlash prinsipi batafsil o'rganiladi. Undan keyin, masalaning boshlang'ich ma'lumotlari va asosiy hisoblash tenglama va formulalari aniqlanadi. So'ng masalani alohida xususiy savollarga bo'linadi, oqimlarning turli fizik xossalarning kerakli son qiymatlari aniqlab olinadi.

Hisoblash formulasiga parametrlarning son qiymatlarini qo'yib, to'g'ri qo'yilgani tekshiriladi va undan keyin arifmetik hisoblashga kirishiladi. Olingan javob, qurilma yoki uskunaning amaliy ishlash rejasiga to'g'ri kelishi, mosligi tanqidiy nuqtai nazardan tahlili qilinishi kerak. Talabalar guruhining amaliy

mashgʻulotlari paytida ular asosiy qoʻshimcha adabiyotlardan oʻrganishi kerak. Auditoriyalarda oʻtkaziladigan mashgʻulotlardan maqsad, talabalar texnik hisoblashlarni olib borishni mukammal egallashidir. Baʼzi misol va masalalarni echishda, talabalar shaxsiy kompʻyuterlarni qoʻllashi ushbu fanni yaxshi egallash garovidir.

Misol va masalalarni echish ketma-ketligini aniqlash, sistematik tavsifi va yozuvlarini tartibli keltirilishi talabaning vaqtini tejashga va oʻqituvchi vaqtining samarali ishlatilishiga olib keladi.

Uslubiy koʻrsatmalarning yakunida baʼzi bir parametrlarning oʻlchov birliklari aniqlashni ular orasidagi bogʻliqliklarni koʻrib chiqamiz

1. SI sistemasida dinamik qovushoqlik koeffitsientining oʻlchov birligini topamiz. N'yuton tenglamasiga binoan, suyuqlik qatlamlarining parallel harakati paytida hosil boʻladigan ishqalanish kuchi ushbu koʻrinishga ega:

$$F = \mu * F * \frac{dw}{dy}$$

Bu yerda

μ - dinamik qovushoqlik koeffitsienti;

F - ishqalanish yuzasi;

$\frac{dw}{dy}$ - tezlik gradienti.

Ushbu tenglamani μ ga nisbatan yechilsa, μ parametr uchun quyidagi oʻlchov birligi kelib chiqadi.

$$[\mu] = \left[\frac{P * dy}{F * dy} \right] = \frac{H * c * m}{m^2 * m} = \frac{H * c}{m^2} = Pa * s$$

SI sistemasida issiqlik oʻtkazuvchanlik parametrining oʻlchov birligi topilsin. Tekis devordan oʻtayotgan issiqlik miqdori Q ni aniqlash tenglamasi quyidagicha :

$$Q = \frac{\lambda}{\delta} * F * \Delta t$$

Bu yerda

λ – issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti;

δ – devor qalinligi;

F – issiqlik o'tayotgan yuza;

Δt – temperaturalar farqi.

Bu tenglamani λ ga nisbatan echilsa quyidagi olamiz.

$$[\lambda] = \left[\frac{Q * \delta}{F * \Delta t} \right] = \frac{\frac{J}{s} * m}{m^2 * K} = \frac{Vt}{m * K}$$

Dinamik qoshushoqlik koeffitsientining SI va SGS sistemalarida o'lchov birliklari orasidagi bog'lanish aniqlansin:

$$1 Pa * s = 1 \frac{kg}{m * s} = \frac{1000g}{100sm * s} = 10 \frac{g}{sm * s} = 10P = 100sP$$

$$1sP = 10^{-3} Pa * s = 1mPa * s$$

Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientining va $\frac{Bm}{m.K}$ o'lchov birliklari orasidagi nisbat topilsin.

$$1 \frac{kgkal}{m^2 * soat * ^\circ C} = \frac{4190 kJ}{m * 3600 * s * K} = 1.163 \frac{Vt}{m * K}$$

Xom-ashyo, material va mahsulotlarning asosiy xossalari

Zichlik-Xajm birligi ichidagi V bir jinsli jismning m massasi zichlik ρ deyiladi va u quyidagicha ifodalanadi $\rho = \frac{m}{V}$ va u kg/m^3 birligida o'lchanadi.

Solishtirma xajm-zichlik kattaligiga teskari bo'lgan kattalik solishtirma xajm v deyiladi va u $v = \frac{V}{m}$ ko'rinishida ifodalanib, m^3/kg birligida o'lchanadi.

Massa- erkin tushish tezligini g , solishtirma ogirlikga G nisbati bilan ifodalanadi va u kg da ifodalanadi $m = \frac{G}{g}$

Nisbiy zichlik Δ -deb modda zichligining ρ , suv zichligi ρ_c ga nisbati aytiladi va u $\Delta = \frac{\rho}{\rho_c}$ ko'rinishida ifodalanadi.

Solishtirma og'irlik γ - zichlik ρ bilan erkin tushish tezligi g ko'paytmasi orqali ifodalanadi ya'ni

$$\gamma = \rho * g$$

Suyuqlik aralashmasining zichlik-suyuqlik aralashmasining hajmi komponentlar hajmining yig'indisiga teng deb qabul qilib, uning zichligini

$$\frac{1}{\rho_{ap}} = \frac{x_1}{\rho_1} + \frac{x_2}{\rho_2} + \dots \text{ tenglamasi bilan aniqlanadi.}$$

Suspenziya zichligi- xuddi shunga o'xshash $\frac{1}{\rho_{cyc}} = \frac{x}{\rho_k} + \frac{1-x}{\rho_c}$ formulasi bilan xisoblash topish mumkin bo'ladi.

Bu yerda

X-komponentlarining massaviy qismi:

ρ -aralashma va komponentlarning zichligi, kg/m^3

Har qanday gazning istalgan temperatura T va bosim P dagi zichligini 1 -formula orqali aniqlash mumkinligini xisobga olgan xolda, gaz aralashmasining zichligini 2 - formuladan xisoblab topish mumkin bo'ladi.

$$\rho = \rho_0 * \frac{T_0 * P}{T * P_0} \quad (1)$$

$$\rho_{ar} = y_1 * \rho_1 + y_2 * \rho_2 \quad (2)$$

Bu yerda

$\rho_0 = M/22,4$ нормал шароитда (0°C ва 760 мм. см. уст.) gazning zichligi, kg/m^3 ;

M - molyar massa, kg ;

T - temperatura, $^\circ\text{C}$, K .

Qurilmadagi absolyut bosim quyidagi 3 va 4 formulalar orqali hisoblanadi. Umuman olganda balandligi h va zichligi ρ bo'lgan suyuqlikning bosimi 5 formula orqali ifodalaniladi

$$P = P_{atm} + P_{man} \quad (3)$$

$$P = P_{atm} - P_{vak} \quad (4)$$

$$P = \rho * g * h \quad (5)$$

Bu yerda

P_{atm} atmosfera bosimi, Pa ;

P_{man} manometrda o'lchangan bosim, Па ;

P_{vak} –vakuumetrda o'lchangan bosim, Па

Gidrostatistikaning asosiy tenglamasi ushbu ko'rinishga ega : $P = P_0 + \rho * g * h$

Kinematik qovushoqlik -dinamik qovushoqlik koeffitsientini μ shu suyuqlik zichligiga nisbatiga teng bo'lib va v bilan belgilanadi $v = \frac{\mu}{\rho}$

2-Amaliy mashg'ulot

Suyuqlik xarakatlanayotgan quvurdagi maxalliy va ishqalanish qarshiliklarni xisoblashga doir masalalar

Hisoblash formulalari va asosiy bog'liqliklar

Nazariy qism. Kimyo va oziq-ovqat sanoatlarida barcha tarmoqlarda suyuqliklar gorizonta va vertika trubalar orqali uzatiladi. Suv, neft, benzin, yog, moylar, sut, vino, pivo va boshqa suyuqliklarni uzatish uchun mo'ljallangan mashinalar nasoslar deyiladi. Texnologik quvurlar va kanallar bo'ylab suyuqliklarni uzatish uchun nasoslardan foydalaniladi. Suyuqliklarning satxlari yoki zichliklari orasida farq bo'lganda xam oqim yuzaga keladi. Gidrodinamika qonunlariga asosan berilgan miqdordagi suyuqlikni xaydash uchun zarur bo'lgan bosim qiymati va energiya sarfini aniqlash mumkin, yoki aksincha, ma'lum bosimlar farqi mavjud bo'lganda suyuqlik sarfi va tezligi aniqlanadi.

Oqimning tezligi va sarfi. Vakt birligi ichida quvur yoki kanal orqali oqib o'tgan suyuqlik miqdori **suyuqlik sarfi** deb yuritiladi. Suyuqlik sarfi xajmiy V (m^3/sek , $m^3/soat$, l/sek) yoki massaviy M (kg/sek , $kg/soat$) birliklarda o'lchanadi va suyuqliklarning sekunda hajmiy sarf V (m^3/s) tenglamasi $V=w*f$ ko'rinishda ifodalansa, massaviy sarf esa $M=V*\rho=w*f*\rho$ ko'rinishida hisoblanadi.

Silindrsimon trubalar uchun hajmiy sarf V (m^3/s) tenglama quyidagi ko'rinishga ega; $V=0,785*d^2*w$

*Izoh bu yerda $0,785*d^2$ kattalikni $S = \pi r^2$ formulasini, $S = \frac{\pi d^2}{4}$ ifodasidan π va 4 larni ya'ni 3,14 va 4 sonini qisqartmasidir.*

Berilgan sarf va qabul qilingan tezlik w bo'yicha truba diametri ushbu tenglamadan topiladi.

$$d = \sqrt{\frac{V}{0.785*w}} \quad \text{yoki} \quad d = \sqrt{\frac{4*V}{\pi*w}} \quad (2.1)$$

5-jadval. Kanallarning ekvivalent diametrlari.

T/r	Kanal kesimi yuzasining Shakli	d_e ifodasi	Izoxlar
1	Aylana	D_i	d_i- ichki diametr
2	Xalqa	d_t-d_i	d_t- tashqi diametr
3	Kvadrat	a	a- kvadrat tomonlari
4	To'g'ri turtburchak	2hb/(h+b)	h- turtburchak balandligi,
	- agar b>>h bo'lsa	2h	b- turtburchakni eni
	- agar b/h=10 bo'lsa	1.8 h	D_i- apparat qobig'ining ichki diametri,
	- agar b/h=4 bo'lsa	1.6 h	
	- agar b/h=2 bo'lsa	1.3 h	n- trubalar soni,
	Trubalar o'rami	<u>D_i²-nd_t</u>	d_t- trubani tashqi diametri
		D_i+nd_t	

Silindrsimon o'zgaruvchan ko'ndalang kesim yuzasidan oqayotgan siqilmaydigan suyuqlik oqimining uzluksizlik tenglamasi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi

$$V=w_1*f_1=w_2*f_2=w_3*f_3=... \quad (2.2)$$

Reynol'ds kriteriysi esa oqimining harakat rejimini harakterlaydi va quyidagi formula yordamida topiladi:

$$Re = \frac{w \cdot d \cdot \rho}{\mu} \quad (2.3)$$

To'g'ri va tekis yuzaga ega trubalar orqali o'tayotgan oqimlar, quyidagi Reynolds kriteriysi soni qiymatlari bilan xarakterlanadi. $Re < 2320$ bo'lsa, laminar rejimi; $2320 < Re < 10000$ oraliqda o'tkinchi soha;

$Re < 10000$ bo'lsa, turgun turbulent rejimi. Trubalarda oqayotgan suyuqlikning o'rtacha $W_{o'r}$ va maksimal W_{max} lari orasidagi funksiyasi oqimning harakat rejimiga bog'liqdir. Laminar rejimida $W_{o'r} = 0.5 \cdot W_{max}$

turbulent rejimida $W_{o'r} = (0.8-0.9) \cdot W_{max}$

Suyuqlilar sarfini normal o'lchov diafragmasida aniqlash uchun hajmiy sarf formulasi quyidagicha yoziladi.

$$V = \alpha \cdot \kappa \cdot f_{\rho} \sqrt{\frac{2 \cdot \Delta P}{\rho}} = \alpha \cdot \kappa \cdot f_{\rho} \sqrt{\frac{2 \cdot g \cdot H \cdot (\rho_m - \rho)}{\rho}} \quad (2.4)$$

Bu yerda ;

α -normal diafragmaning sarf koeffitsienti;

K - devor g'adir-budirligini hisobga oluvchi tuzatish koeffitsienti; gidravlik silliq trubalar uchun $k=1$; $f_{\rho}=0,785 \cdot d^2$ -diafragma teshigining yuzasi;

d_0 -diafragma ulangan difmonometrda suyuqlik sathlarining farqi;

Labaratoriya mashg'ulotlardagi Pito-Prandtl naychasi yordamida suyuqlikning sarfini va tezligini aniqlash ushbu formuladan topiladi

$$W_{max} = \sqrt{\frac{2 \cdot g \cdot H \cdot (P_m - P)}{\rho}} \quad (2.5)$$

Suyuqliklarni bir joydan ikkinchi joyga vertical yoki gorizontal yo'nalishda uzatish qurilmasi bu nasoslar bo'lib uning dvigeteliga talab etiladigan quvvat ushbu formula bilan topiladi.

$$N = \frac{V * \Delta P}{1000 * \eta} = \frac{p * g * h * V}{1000 * \eta} \quad (2.6)$$

Bu yerda

ΔP – tarmoqning to'liq gidravlik qarshiligi va u quyidagicha topiladi:

$$\Delta P = \Delta P_m + \Delta P_{iq} + \Delta P_{mq} + \Delta P_{ku} + \Delta P_{kush} \quad (2.7)$$

ΔP_m – tezlik bosimi

Suyuqliklarni uzatishda ishqalanish qarshiligida bosimni yo'qotilishi quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$\Delta P_{iq} = \lambda \frac{l}{d} * \frac{h * w^2}{2} \quad (2.8)$$


Ishqalanish koeffitsienti λ ning son qiymatlari ma'lum ko'rsatkichlar asosida quyida keltirilgan formulalar bilan xisoblanadi va u laminar va turbulent rejimlarda quyidagi ko'rinishlarda ifodalanadi.

$$\text{Laminar rejimda } \lambda = \frac{64}{Re} \quad (2.9),$$

$$\text{turbulent rejimda esa } \lambda = \frac{0,316}{Re^{0,25}} \quad (2.10)$$

Tarmoqdagi mahalliy qarshiliklarda bosimning yo'qotilishi esa quyidagi tenglama yordamida topiladi.

$$\Delta P = \sum \zeta_{mq} * \frac{p * w^2}{2} \quad (2.11)$$



1-rasm. Quvurlarning torayishi va kengayishi.

6-jadval. Maxalliy qarshiliklar koeffitsientlarining qiymatlari

6,1-jadval. Maxalliy qarshiliklar koeffitsientlarining 1-rasm ko'rinishlaridagi qiymatlari

1-rsamdagi mahalliy qarshiliklar tartibi	Mahalliy qarshilik turlari	Mahalliy qarshilik koeffitsienti (ζ)
1	Quvurga kirish	0,2....0,5
2	Quvurdan chiqish	1,0
3	90 ⁰ ga burilish	0,15
4	$\alpha = 90^0$ li tirsak	1,1.....1,5
5	Tiqinli kran:	
	Butunlay ochiq	0,05
	$\alpha = 20^0 \dots\dots 50^0$	2.....9,5
6	Standart ventl	
	$d = 20 \text{ mm}$	8
	$d = 40 \text{ mm}$ va undan ortiq	4.....6
7	To'satdan kengayish ($Re > 3500$)	
	$f_1/f_2=0,1$	0,50
	$f_1/f_2=0,3$	0,35
	$f_1/f_2=0,4$	0,30
	$f_1/f_2=0,5$	0,25
8	To'satdan kengayish ($Re > 10^4$)	

$f_1/f_2=0,1$	0,45
$f_1/f_2=0,3$	0,35
$f_1/f_2=0,4$	0,30
$f_1/f_2=0,5$	0,25

6,2-jadval. Maxalliy qarshilik koeffitsientlarining umumiy qiymatlari

T/r	Mahalliy qarshilik turlari	Mahalliy qarshilik koeffitsienti (ζ)
1	Dy = 50 mm jumrakni, tulik ochik xolati uchun	4,6
2	dy = 400 mm jumrak, tulik ochik xolati uchun	7,6
3	Zadvijka	0,5÷1,0
4	Kran	0,6÷2,0
5	R = d bo'lgan tirsak, $\alpha = 90^\circ$	0,3
6	R = d 4 bo'lgan tirsak, $\alpha = 90^\circ$	1,0
7	Quvurlarga kirish	0,2÷0,5
8	Quvurlardan chikish	1,0
9	Probkali kran, tula ochik bo'lsa agar $20^\circ \leq \alpha \leq 50^\circ$	0,05 2÷9,5
10	U- shaklidagi quvurda 180° ga burilish	0,5

Trubalardagi ichki ishqalanish va mahalliy qarshiliklar ma'lum bo'lsa ular tufayli bosimning yo'qotilishi ushbu tenglama yordamida hisoblanadi:

$$\Delta P = \left(1 + \lambda \frac{l}{d} + \sum \zeta\right) * \frac{p \cdot w^2}{2} + p * g * h_{kush} + (P_2 - P_1) \quad (2.12)$$

Bu yerda

λ - ishqalanish koeffitsienti

l -quvurning uzunligi

d -quvurning diametri

$\sum \zeta$ -mahalliy qarshiliklar u 6-jadvaldagi ko'rsatkichlar orqali aniqlanib hisoblanadi.


P_1 va P_2 -dastlabki va so'ngi bosimlar

3-Amaliy mashg'ulot

Nasosning asosiy parametrlarini xisoblashga doir masalalar


Hisoblash formulalari va asosiy bog'liqliklar

b-rasm



a-rasm

2-rasm, nasos turlari



Suyuqlik yoki gazlarni gorizontal va vertical quvurlar orqali uzatuvchi mashinalarga yoki elektr dvigatelning mexanik energiyasini suyuqlikning uzatilish energiyasiga aylantiruvchi va uning bosimini oshiriruvchi gidravlik mashinalarga nasoslar deyiladi.

Nasoslar asosan ikki turga dinamik va xajmiy nasoslarga bo'linadi.

Dinamik nasoslarda, suyuqlik tashqi kuch ta'sirida gaz va suyuqlik xarakatga keltiriladi. Nasos ichidagi suyuqlik nasosga kirish va kirish trubalari bilan uzliksiz bog'langan bo'ladi.

Xajmiy nasoslar suyuqlik yoki gazlarni xajmiy siqilishi va kengayishi xisobiga uzatiladi. Bunday nasoslar asosan qovushqoqligi yuqori suyuqliklarni uzatishda qo'llaniladi.

2-rasmda nasoslarning markazdan qochma (**a**) va shesternyali (**b**) turlari ko'rsatilgan. a-rasmda markazdan qochma nasos ifodalangan; 1-7 klapanlar; 2-so'rish quvuri; 3-ishchi g'ildirak; 4-o'q; 5-qobiq; 8-xaydash quvuri; 9-zadvijka.

b-rasmda shesternyali nasos ifodalangan; 1-qobiq; 2-3 shesternyalar; 4-xaydash shtutseri; 5-so'rish shtutseri

Vaqt birligi ichida quvur yoki kanal orqali oqib o'tgan suyuqlik miqdori **suyuqlik sarfi** deb yuritiladi. Nasosning vaqt birligi ichida uzatib beradigan suyuqlikning miqdoriga nasosning ish unumdorligi (yoki sarfi) deyiladi. Q , m^3/s . Vaqt birligida so'rilgan suyuqlik hajmi Q ni nasosning sarfi deb ataladi. So'rish m^3/c , l/s va boshqa birliklarda o'lanadi.

Eng sodda porshenli nasosning sarfi ushbuga teng:

$$Q = F * L * \frac{n}{60} \quad (3.1)$$

Ko'p yo'lli porshen nasosning sarfi

$$Q = F * L * \frac{n}{60} * i \quad (3.2)$$

Ikki yo'lli bir porshenli nasosning sarfi esa

$$Q = (2 * F - f) * L * \frac{n}{60} \quad (3.3)$$

Shesternali nasosning ish unumdorligi esa

$$Q = \frac{2 * f_{sh} * b * z * n_{sh}}{60} \quad (3.4)$$

Bu yerda

F-porshen ko'ndalang kesimining yuzasi;

L-porshenning yurishi;

n-porshenning bir minutda borib kelishi soni.

i – nasos silindrlarining soni.

f- shtok ko'ndalang kesimining yuzasi, m^2

f_{sh}-shesterna tishining ko'ndalang kesim yuzasi

b- shesterna tishining eni

z- shesterna tishlarining soni

n_{sh}-aylanish soni

Nasosdan o'tayotgan suyuqlik oqimini olgan solishtirma energiyasi nasosning bosimi deb ataladi va suyuqlik ustunining metrlari hisobida o'lchanadi.

$$H = H_r + \frac{P_2 + P_1}{\rho * g} + h_{um} \quad (3.5)$$

$h_{ym} = h_s + h_x$ -trubaning umumiy gidravlik qarshiligi;

$H_r = H_c + H_x$ - geometrik balandlik;

Nasosning vaqt birligida bajargan ishi uning quvvati deyiladi. Quvvatning o'lchov birligi (Vt) vatt bo'lib va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$N_f = \gamma * Q * N = \rho * g * H * Q \quad (3.6)$$

Nasosning o'qidagi quvvat foydali quvvatdan kattaroq bo'ladi, ya'ni:

$$N_e = \frac{\rho * g * Q * H}{\eta_h} \quad (3.7)$$

Markazdan qochma nasoslarning hosil qilgan bosimi ishchi g'ildiraklarning aylanish tezligiga bog'liq bo'ladi. Nasos ishga tushirilishidan ilgari so'rish

trubasi, ish g'ildiragi va qobiq uzatilayotgan suyuqlik bilan to'ldiriladi. Agar ish g'ildiragi bilan qobiq orasida bo'shliq bo'lsa, ishchi g'ildiragining aylanish natijasida etarli siyraklashish hosil bo'lmaydi. Nasosning ish unumdorligi, napori, iste'mol qiladigan quvvati ish g'ildiraklarining aylanish chastotasining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi, ya'ni aylanishlar chastotasi n_1 dan n_2 ga ortsa, uning ish unumdorligi, napori va iste'mol qiladigan quvvati quyidagicha o'zgaradi:

$$\frac{Q_1}{Q_2} = \frac{n_1}{n_2}; \quad \frac{H_1}{H_2} = \left(\frac{n_1}{n_2}\right)^2; \quad \frac{N_1}{N_2} = \left(\frac{n_1}{n_2}\right)^3 \quad (3.8)$$

Ish g'ildiragining aylanishlar chastotasi o'zgarmas bo'lganda ish unumdorligi Q ning napori N nasosning o'z quvvati va foydali ish koeffitsienti bilan o'zaro grafik usulidagi bog'liqligi η nasosning xarakteristikasi deb yuritiladi. Bu olingan quvvat formulalari nasosning suyuqlikka berilgan energiyasini ifodalovchi foydali quvvatni beradi. Amalda esa dvigatelning o'q(valni) aylantirishga sarflagan quvvati bu qiymatga ko'ra ko'p bo'ladi. Foydali quvvatning valga bergan quvvatga nisbati nasosning foydali ish koeffitsienti f.i.k deb ataladi.

$$\eta = \frac{N_f}{N} \quad (3.9)$$

Buni nazarga olganda, suyuqlikni so'rish uchun ishlatilgan umumiy quvvat quyidagi formuladan topiladi.

$$N_{dv} = \frac{P * g * Q * H}{\eta_h * \eta_y * \eta_{dv}} \quad (3.10)$$

Nasos qurilmalarini o'rnatish uchun zarur bo'lgan quvvat quyidagicha aniqlanadi.

$$N_v = \beta * N_{dv} \quad (3.11)$$

Bu yerda β -quvvatning zahira koeffitsienti va uning qiymatlari quyidagi 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

N_{dv}, kVt	<1	1-5	5-50	>50
B	<2-1,5	1,5-1,2	1,2-1,15	1,1

Izox: Suyuqliklarning o'rtacha tezligi quyidagicha aniqlanadi $w = \frac{V}{f}$, oqimning o'rtacha tezligi esa $w = \frac{4 \cdot V}{\pi \cdot d^2}$ formulasi bilan aniqlanadi. Yuqoridagi formulalarga asoslanib nasosning so'rish va xaydash trubasidagi suyuqliklarning tezligi quyidagicha aniqlanadi; $w_{so'r} = \frac{V}{60 \cdot 0.785 \cdot d^2}$ yoki $w_{hay} = \frac{V}{60 \cdot 0.785 \cdot d^2}$. Nasosning uzatish koefitsenti nasosning nazariy uzatilgan suyuqlik miqdorini xaqiqiy uzatilgan suyuqlik miqdoriga nisbati orqali aniqlanadi, ya'ni $\eta_h = \frac{Q_{haq}}{Q_{naz}}$

Bu yerda


V - suyuqlikning xajmiy sarfi,

f -trubaning ko'ndalang kesimi yuzasi,

d -trubaning diametru

4-Amaliy mashg'ulot


Mavhum qaynash qatlaminin gidrodinamikasi Hisoblash formulalari va asosiy bog'liqliklar



3-rasm. Mavhum qaynash qatlamli quritgich:

1 — ventilyator; 2 — aralashtirish kamerasi; 3 — gaz tarqatuvchi Tfp; 4 — quritilgan material chiqadigan shtutser; 5 — ta'minlagichli bunker; 6 — quringichning qobig'i; 7—tsiklon; 8—batareyali tsiklon; 9 — transportyer

Bizga ma'lumki mavhum qaynash qatlami zarrachalar olgan tezlik bilan bog'liqdir zarrachalarning birinchi kritik tezlik va ikkinchi kritik tezlik orasidagi jarayon bu **mavhum qaynash** jarayonidir.



4-rasm. *a-zich qatlam; b- mavhum qaynash qatlami; v-pnevмотransport holati*

Zarrachalar olgan birinchi (4.1) va ikkinchi (4.2) kritik tezliklar professor O.M.Todes formulalaridan topiladi va quyidagi ko'rinishda ifodalanadi

$$Re_{mk} = \frac{Ar}{1400 + 5.22\sqrt{Ar}} \quad (4.1),$$

$$Re_{uch} = \frac{Ar}{18 + 0.61\sqrt{Ar}} \quad (4.2)$$

Ushbu formulalardagi Ar kreteriyasini ushbu $Ar = \frac{g^* d^3 (\rho_k - \rho)}{\mu^2}$ formula orqali aniqlanadi

Bu yerda

g -erkin tushish tezligi

d – zarracha diametri

ρ_k – qattiq zarracha zichligi

ρ -muhit zichligi

μ – qovushqoqlik

Qattiq jismlardan iborat qo'zg'almas qatlam g'ovakligi qattiq jismlar eggalamagan bo'sh hajm ulishiga tengdir:

$$\varepsilon_o = \frac{V_k^* V}{V_k} \quad (4.3)$$

Agarda qattiq jismlar orasidagi bo'shliqni to'ldirib turgan muhitning zichligi qattiq jismdan juda kam bo'lsa, tenglama quyidagi ko'rinishni oladi.

$$\varepsilon_o = 1 - \frac{V_k}{V} \quad (4.4)$$

Bu yerda

V_k, V – zarrachalar va kатлам хажмлари

Bir xil diametrli sharsimon zarrachalardan iborat qo'zg'almas qatlamning amaliy g'ovakligi 0,38-0,42 oraliqda bo'ladi. Hisoblash uchun o'rtacha qiymatini 0,4 ga teng deb qabul qilish mumkin. Mavhum qaynash jarayonida qattiq jismlardan iborat qatlamining g'ovakligi ushbu tenglamadan topiladi:

$$\varepsilon = \frac{V_{qat} - V}{V_{qat}} \quad (4.5)$$

Bu yerda

V_{qat} - mavhum qaynash qatlamining hajmi, m^3 ;

Mavhum qaynash qatlami zarrachalari egallagan hajm $V_0 = (1 - \varepsilon) f \cdot h$ (4.6) formulasi bilan ifodalansa, tegishli qatlamni bo'sh xajmi esa quyidagicha xisoblanadi

$V_{bx} = F \cdot H \cdot \varepsilon$ (4.7). Ushbu hajmdagi bitta zarrachaning o'rtacha hajmi $V_z = \frac{\pi \cdot d^3}{6}$

(4.8) bilan aniqlanadi, $F_z = \frac{\pi \cdot d^2}{f}$ (4.9) ifodasi orqali qatlamdagi bitta zarracha

yuzasini hisoblashimiz mumkin bo'lib bu yerda f -shakl koeffitsenti.

Harakatlanayotgan oqimning haqiqiy tezligini aniqlab bo'lmaydi shuning uchun

oqimning o'rtacha tezligi ushbu $W = \frac{W_0}{\varepsilon}$ (4.10) formula bilan aniqlanadi. Agarda

harakatlanayotgan oqimning o'rtacha tezligi ma'lum bo'lsa u holda biz mavhum

qaynash sonini $K = \frac{W}{W_{mk}}$ (4.11) ifodasi orqali hisoblashimiz mumkin bo'ladi.

$\beta = \frac{H_0}{H}$ -qatlamning kengayish koeffitsenti hisoblanib u H-qatlamning balandligini,

dastlabki qatlam balandligiga nisbati bilan ifodalanadi.

Zarrachalarning qatlamda o'rtacha bo'lish vaqti τ :

$$\tau_o = \frac{M}{G} \quad (4.12)$$

bu yerda

M -qatlamdagi material massasi .kg;

G -qattiq material sarfi, kg/s.

W_0 -mavhum tezligi

W_{mk} —mavhum qaynash tezligi

$\Delta P = \frac{G_k}{F}$ -mavhum qaynash qatlami gidravlik qarshiligi hisoblash bo'lib u qurillama yuzasini zarracha og'rligiga nisbati bilan ifodalanadi bu yerda $G_k = F \cdot H(1-\varepsilon)(\rho_{k3}-\rho_m)g$ -zarrachani og'irligini hisoblash formulasi bo'lib umumiy holda mavhum qaynash qatlamining gidravlik qarshiligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta P = g * (\rho_m - \rho) * (1 - \varepsilon) * h = g * (\rho_m - \rho) * (1 - \varepsilon_0) * h \quad (4.13)$$

Bu yerda

h va h_0 - mavhum qaynash va qo'zg'almas qatlam balandlari, m;

ρ_m va ρ - material va muhit zichligi, kg/m³.

Mavhum qaynash qatlami gidrodinamikasining asosiy xarakteristikasi $-\Delta P_{kat}$ o'zgarmasligi;

$$\Delta P_{kat} = \frac{G_{kat}}{F} = const \quad (4.14)$$

Bu yerda

G_{kat} -qatlamdagi material og'irligi, kg;

F -ko'ndalang kesim yuzasi, m²

Gaz tarqatuvchi to'ring gidravlik qarshiligi quyidagi tenglama orqali topiladi:

$$\Delta P_r = \frac{0,503 * W_0^2 * \rho * (1 - \varphi^2)}{C^2} \quad (4.15)$$

Bu yerda

$\varphi = 0,010-0,05$ gaz tarqatuvchi tor teshiklarining ulishi ;

$W_0 = W / \varphi$. teshiklar orqali o'tayotgan gazning tezligi;

W-qurilma ko'ndalang kesim yuzasiga nisbatan hisoblangan oqim tezligi m/s;
s-to'ring qarshilik koeffitsienti u d/δ nisbatga bog'liq,
d-to'ring teshigining diametri, m;
 δ -to'ring qalinligim.

SHarsimon bo'lmagan zarrachalarning shaklini belgilovchi kattalik F quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$F = 0,207 \cdot \frac{F}{V^{0.666}} \quad (4.16)$$

Ushbu zarrachalar ekvivalent diametri esa:

$$d_e = F \cdot d \quad (4.17)$$

Bu yerda

d_e - shar diametri. Ushbu sharning hajmi zarracha hajmga tengdir.

Turli diametrli zarrachalardan tashqil topgan qatlam zarrachalarining ekvivalent diametrlari ushbu formuladan topiladi:

$$d_e = \frac{1}{\sum_{i=1}^n \frac{x_i}{d_i}} \quad (4.18)$$


Ma'lum temperaturadagi havoning zichligi (4.19) formulasi orqali xisoblaniladi

$$\rho = \rho_{havo} \cdot \frac{K}{K + T^{\circ}C} \quad (4.19)$$

Bu yerda

K -Kelvin

$T^{\circ}C$ -Selsi



5-rasm. Lyashenko kriteriyasini, Arximed kriteriyasi va qatlamlarning g'ovakligi ϵ ga bog'liqligi.

5-Amaliy mashg'ulot

Turli jinsli sistemalarni cho'ktirishga doir masalalar

Hisoblash formulalari va asosiy bog'liqliklar

Tinch holatdagi chegaralanmagan muhitda sharsimon zarrachalarni cho'ktirish jarayonini kriterial shaklda izoxlash uchun quyidagi o'xshashlik kriteriylari qo'llanilishi mumkin: Arximed Ar , Lyashenko Ly va Reynolds Kriterial bog'liqligining eng qulay va to'g'ri ko'rinishi $Ly=f(Ar)$ dir. Agar kriteriylar qiymati $Ar < 3,6$; $Ly = 2 \cdot 10^{-2}$ $Re < 0,2$, bo'lsa, ya'ni cho'ktirish laminar rejimda olib borilganda Stoks tomonidan sharsimon zarrachalarning cho'ktirish tezligi $w_{ch}(m/s)$ quyidagi nazariy formula taklif etiladi. Tinch holatdagi chegaralanmagan muhitda sharsimon zarrachalarni cho'ktirish jarayonini kriterial shaklda izoxlash uchun quyidagi o'xshashlik kriteriylari qo'llanilishi mumkin: Arximed Ag , Lyashenko Ly va Reynold's Re . Kriterial bog'liqligining eng qulay va to'g'ri ko'rinishi $Ly=f(Ag)$ dir. Agar kriteriylar qiymati $Ag < 3,6$; $Ly = 2 \cdot 10^{-3}$; $Re < 0,2$, bo'lsa, ya'ni cho'ktirish laminar rejimda olib borilganda Stoks tomonidan sharsimon zarrachalarning cho'ktirish tezligi $w_{ch}(m/s)$ quyidagi nazariy formula taklif etiladi.

$$w_{ch} = \frac{(g \cdot d^2 (p_k - p))}{(18 \cdot \mu)} \quad (5.1)$$

Gazli muhitda zarralarni cho'ktirish uchun formula quyidagi soddalashtirilgan holda bo'ladi.

$$w_{ch} = \frac{g \cdot d^2 \cdot p_k}{18 \cdot \mu} \quad (5.2)$$

bunda, $r \ll p_k$ bo'lgani uchun r ni hisobga olmasa ham bo'ladi. d - sharsimon zarracha diametri, m , p -muhit zichligi, kg/m^3 ; μ - muhitning dinamik qovuushoqlik koeffitsienti, $Pa \cdot s$; ya'ni $N \cdot s/m^2$ yoki $kg/(m \cdot s)$. Stoks formulasini Ar va Ly kriteriylarining son qiymatlari katta bo'lganda ham qo'llash mumkin.

Umumiyashtirilganda holatda tinch chegaralanmaganda sharsimon zarrachalarni cho'ktirish quyidagicha bo'ladi.

Arximed kriteriysi quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$Ar = Ga * \frac{\Delta p}{p} = \frac{Re^2}{Fr} * \frac{p_K - p}{P} = \frac{g * d^3 * (p_K - p)}{\mu^2} \quad (5.3)$$

Galiley kriteriysi: $Ga = \frac{Re^2}{Fr}$ Gazli muhitda cho'ktirish uchun : $Ar = \frac{g * d^3 * p_K}{\mu^2}$

Aniqlangan Ar kriteriyasi bo'yicha Re va Ly kriyteriyalari aniqlanadi.

$$Ly = \frac{R^2}{Ar} = \frac{Re * Fr * \varsigma}{p_K - p} = \frac{w^3 * p^2}{\mu * (p_K - p) * g} \quad (5.4)$$

yoki

$$Ly = \frac{w_K^2 * p}{g * P_K * \mu}$$

Keyin esa cho'ktirish tezligi hisoblanadi.

$$w_{ch} = \frac{Re * \mu}{p * d} \quad (5.5)$$

Cho'ktirish tezligi ma'lum bo'lsa, sharsimon zarracha diametri teskari yo'l bilan aniqlanadi, ya'ni Lyashenko kriteriysi orqali hisoblanadi.

$$d_{ch} = \frac{w_{ch}^3 * p}{\mu * g * (p_K - p)} \quad (5.6)$$

CHang o'tkazish kamerasi yoki suspenziya (aralashma) uchun tindirgichning cho'ktirish yuzasi F quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$F_{ch} = \frac{V}{w_{ch}} \quad (5.7)$$

Bu yerda

V -qurilma cho'ktirish yuzasiga parallel holda o'tayotgan suyuqlikning hajmiy sarfi, m^3/s ,

w_{ch} zarrachaning o'rtacha hisobiy cho'ktirish tezligi, m/s .

Uzliksiz ishlaydigan tindirgich uchun formula quyidagicha egadir:

$$F_{ch} = \frac{G_b \left(1 - \frac{c_b}{c_0}\right)}{\rho * w_{ch}} \quad (5.8)$$

Bu yerda

F_{ch} - tindirgichning cho'ktirish yuzasi, m^2 ;

G_b - boshlang'ich kontongratsiyali qattiq faza konsentratsiyasi kg/kg ;

ρ - tozalangan suyuqlik zichligi, k, m^3 ;

$W_{ch}=0,5*W_{ch-cho}$ 'qish tezligi, m/s ;

Cho'kish jarayonini o'rganish natijasida ko'pchilik olimlar tomonidan quyidagi rejimlar aniqlangan va ularni ifodalovchi formulalar 8-jadvalda tavsiya etilgan.

8-jadval.

Suyuqlik xarakat rejimi	Reynolds soni	Arximed soni	Formula	Muhitning qarshilik koeffitsienti
Laminar rejim	$Re < 2$	$Ar < 36$	$Re = 0,056 * Ar$	$\zeta = \frac{24}{Re}$
O'tish sohasi	$Re = 2 \dots 500$	$Ar = (36 \dots 83) * 10^3$	$Re = 0,15 * Ar^{0,715}$	$\zeta = \frac{18,5}{Re^{0,6}}$
Turbulent rejim	$Re > 500$	$Ar = 83 * 10^3$	$Re = 1,74 * Ar^{0,5}$	$\zeta = 0,44 = const$

Cho'ktirish qurilmalarining ish unumdorligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q = \frac{F * h}{\tau} = F * w \quad (5.9)$$

Bu yerda

F -cho'kish yuzasi yoki rezervuarining ko'ndalang kesimi, m^2 ;

h -suyuqlik ustuning balandligi, m , t -cho'ktirish vaqti, s .

SHarsimon shaklga ega bo'lmagan zarrachalarning cho'kish tezligi, sharsimon zarrachalarnikiga qaraganda kamroq bo'ladi. SHuning uchun, bu xildagi zarrachalarning cho'kishtezligi ushbu tenglamadan topiladi.

$$W_{tsh} = \varphi * W_{ch} \quad (5.10)$$

Bu yerda

φ -zarracha shakliga bog'liq tuzatish koeffitsienti.

9-jadval

Zarracha shakli	φ
Dumaloqsimon	0,77

Burchakli	0,66
CHO‘zinchoq	0,58
Plastinkasimon	0,43

Noto‘g‘ri shaklli zarrachalar odatda ekvivalent diametr orqali ifodalanadi:

$$d_e = 1,24 * \sqrt[3]{\frac{m}{\rho}} \quad (5.11)$$

Bu yerda

m - zarracha massasi,kg;

ρ - zichlik,kg/m³.

Qattiq jism faza miqdori 10 % dan ko‘p bo‘lgan turli jinsli sistemalarni siqilgan holatdagi cho‘kish tezligini ushbu formuladan topish mumkin:

$$W_{ch} = W_{ch} * [\sqrt{20,25 * c_0 * (1 - c_0)^3} - 4,5 * c_0] \quad (5.12)$$

Bu yerda

W_{ch} –formula orqali hisoblab topiladi;

C₀- suspenziya tarkibidagi zarrachalarning hajmiy konsentratsiyasi.

6-Amaliy mashg‘ulot

Fil‘trlash qurilmasini hisoblashga doir masalalr

Hisoblash formulalari va asosiy bog‘liqliklar

Turli jinsli sistemalarni g‘ovak to‘siqlar yordamida fazalarga ajratish jarayoniga **filtrlash** deyiladi.Filtrlash jarayoni asosan; Filtr to‘siq yuzasida cho‘kma hosil qilish orqali, g‘ovaklarni to‘dirish usulida filtrlash va oralik filtrlash usullari bilan amalga oshiriladi.Filtrlash qurilmasining ish unumdorligi quyidagi formula bilan xisoblanadi.

$$Q = \frac{3600 \cdot V}{\tau_s}; \quad (6.1)$$

Filtrlash jarayonining tezligi esa quyidagi $W = \frac{d \cdot V}{s \cdot d \cdot \tau}$ (6.2) formulaga asosan aniqlanadi, filtrat hajmini esa $V = \frac{h_{ch} \cdot F}{X_0}$ formulasi bilan xisoblanadi. Filtrlash doimiyligini aniqlash ushbu formuladan $K = \frac{\Delta P}{\mu \cdot r_0 \cdot X_0}$ topiladi.

bu yerda

μ -qovushqoqligi

r_0 -cho'kmaning solishtirma qarshiligi

X_0 -qattiq moddalar konsentratsiyasi

v -filtrlash miqdori

τ -jarayonning davomiyligi bo'lib u quyidagicha xisoblanadi $\sum \tau = \tau_f + \tau_{yor}$

$\bar{v}$ vaqtida 1 m^2 fil'tirlash yuzasi orqali $\Delta p = \text{const}$ bo'lganda V fil'tirlash hajmi va fil'tirlash jarayonining davomiyligi bilan bog'liqligi ushbu ko'rinishga ega:

$$V^2 + 2 \cdot V \cdot S = K \cdot \tau \quad (6.3)$$

Bu yerda

S - fil'tr to'siqning gidravlik qarshiligini tavsif qiluvchi fil'tirlash doimiysi, m^3/m^2 ;

K - cho'kma va suyuqlikni fizik- kimyoviy xossalari va fil'tirlash jarayoni rejimini hisobga oluvchi fil'tirlash doimiysi m^2/s ;

τ - fil'tirlash davomiyligi, s.

K va S doimiylar tajriba yo'li bilan aniqlanadi.

Berilgan holatdagi fil'tirlash tezligi ushbu tenglama orqali aniqlanadi.

$$\frac{dV}{d\tau} = \frac{K}{2 \cdot (V + C)} \quad (6.4)$$

yoki tenglamani quyidagi boshqa ko'rinishda ifoda etsa bo'ladi.

$$\frac{dV}{d\tau} = \frac{2 \cdot V}{K} + \frac{2 \cdot C}{K} \quad (6.5)$$

$d\tau/dV$ va V kattaliklar orasidagi bog'liqlik to'g'ri chizig'i orqali K va S doimiylar tajriba yo'li bilan aniqlanadi. O'lchangan V_1, V_2 , kattaliklarni absissa o'qiga, ordinata o'qiga esa $\Delta\tau_1/V_1$, $d\tau^2/V_2$ qiymatlari qo'yiladi. Bu olingan

nuqtalar orqali o'tgan to'g'ri chiziq yordamida K va S lar quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$tg\beta = \frac{2}{K}; \quad M = \frac{2 \cdot C}{K} \quad (6.6)$$

$\Delta p = \text{const}$ bo'lganda 1 m^2 fil'tirlash yuzasiga nisbatan olingan fil'trlash doimiysi K cho'kma solishtirma qarshiligi quyidagicha bog'liqlikda bo'ladi.

Bu yerda Δp -fil'trlash jarayonidagi bosimlar farqi, Pa; μ -fil'tratning dinamik qovushoqlikning koeffitsienti, Pa.s; r -cho'kmaning solishtirma qarshiligi, 1 kg m/kg , s -fil'tirlash yuzasi orqali 1 m^2 fil'trat o'tganda hosil bo'lgan quruq, qattiq modda massasi, kg/m^3 . Suspenziyasining konsentratsiyasi x orqali ifodalanishi mumkin:

$$c = \frac{p \cdot x}{1 - M \cdot x} \quad (6.7)$$

Bu yerda

x -suspenziyadagi qattiq fazaning massaviy konsentratsiyasi, kg/kg ; m - 1 kg quruq modda hisobiga olingan cho'kmaning namligi kg/kg .

Cho'kmadagi quruq modda miqdori G kg yig'ib olingan fil'trat miqdori V , uning zichligi ρ , cho'kmaning namligi m , suspenziyadagi qattiq zarrachalar massaviy qismi x bog'liqlik bo'lib, quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$G = V \cdot \frac{p \cdot x}{1 - M \cdot x} \quad (6.8).$$

Suspenziya tarkibidagi qattiq faza konsentratsiya x uning zichligi ρ_c ga bog'liq, ushbu formula orqali topiladi:

$$x = \frac{(\rho_c - \rho) \cdot \rho_k}{(\rho_k - \rho) \cdot \rho_c} \quad (6.9),$$

Suspenziya zichligi esa

$$\rho = \frac{\frac{n+1}{1+\frac{1}{\rho_k}}}{\frac{1}{\rho_k} + \frac{1}{\rho}} = \frac{\rho + (1+n) \cdot \rho_k}{\rho + \rho_k} \quad (6.10)$$

Bu yerda

x -suspenziya tarkibidagi qattiq fazaning masaviy konsentratsiyasi, kg/kg

ρ_s —suspenziya zichligi, kg/m^3

ρ -suyuq faza zichligi, kg/m^3

ρ_k – qattiq faza zichligi kg/m^3

n -suspensiyadagi bir qism qattiq faza ogirligiga to'g'ri keladigan bir qism qattiq faza ogirligiga To'g'ri keladigan suyuq faza ogirligi

Uzlukli ishlaydigan filtrlarning ish unumdorligi (6.11) quyidagi formuladan topiladi. Fi'trpressning ish unumdorligi quyidagicha (6.12) formulasi orqali xisoblanadi.

$$Q = \frac{V}{\Sigma \tau} \quad (6.11),$$

$$Q = k * F \sqrt{\frac{P}{\mu}} * \tau \quad (6.12)$$

